



SO'ZNING O'Z VA KO'CHMA MA'NOLARI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy
tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11109760>

ARTICLE INFO

Received: 27th April 2024

Accepted: 29th April 2024

Published: 3rd May 2024

KEYWORDS

*metafora, metanimiya,
vazifadoshlik, sinekdoxa o'z
ma'no ko'chma ma'no*

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi so'zlarning o'z va ko'chma ma' nolarga doir ma'lumotlar olishimiz mumkin va ma'no ko'chish turlari metafora, metanimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik haqida misollar bilan chuqurlashtirib o'rganamiz

¹Leksik ma'no odatda bir predmet, belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakatga ko'chirish yo'li bilan rivojlanadi. Bunday ko'chirishning tabiatini, mavqeini har bir tilning o'zidagi semantik qonuniyatlar belgilaydi. Ko'chirishlar asosan quyidagilar: metafora yo'li bilan ko'chirish, funksional ko'chirish, metonimiya yo'li bilan ko'chirish, sinekdoxa yo'li bilan ko'chirish. Ko'chirish qorishiq holda (metafora-fiunksional, metafora-metonimiya, metonimiya-funksional tarzida) ham uchraydi (Misollari quyiroqda). Biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o'zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o'xshashligi asosida ko'chirilsa, metafora yo'li bilan ko'chirish deyiladi (yunoncha metaphora — "ko'chirish"). Masalan, yo'l- leksemasi asli "yurish joyi" ma'nosini anglatadi. Shunday o'xshashlik asosida bu leksema "satr" ("bir chiziq bo'ylab joylashtirilgan yozuv") ma'nosini ham anglatadi boshlagan. Nutqimizdagi so'zlarning ko'pchiligi ko'p ma'noli so'zlar hisoblanadi. Chunki har bir narsani yangicha nomlasak tilimizda so'zlar ko'payib ketadi natijada ularni eslab qolish qiyinlashadi va til asta sekinlik bilan yo'qolib ketadi shu sababli so'zlarni ko'chma ma'noda ham ishlatamiz. Tilimizda oldindan bor bo'lgan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatamiz, yangi kirib kelgan so'zlar, terminlar bir ma'noda ishlatiladi, qolgan hamma so'zlarning ko'chma ma'nolari bor. Yangi kirib kelgan so'zlarni ham vaqtlar o'tishi bilan ko'p ma'noli qilamiz.

Nutqda so'zlanayotgan nutq har doim bir ma'noli bo'ladi uni keyin biz boshqa

ma'nolarda ya'ni ko'chma ma'noda qo'llashimiz mumkin. So'z bir ma'noni anglatadi uni biz bir ma'noli so'z deb ataymiz masalan qalam, ruchka bular bir ma'noli so'zlar. Lekin so'zlar ko'chma ma'noda bir necha ma'nolarni ifodalashi ham mumkin bo'ladi.

So'zning asl tub ma'nosi denotativ ma'no deyiladi. Nutqda boshqa so'zlarga bog'lanib keladigan ma'nosi esa ko'chma ma'no- konotativ ma'no deyiladi. Shu so'zlarni nutqdan ajratib olib ayni

¹ Rahmatullayev Sh Hozirgi adabiy o'zbek tili

bir soʻzni tahlil qilgandagi anglatgann maʼnosi shu asl maʼno deyiladi. Masalan: qozonning qulogʻi, odamning qulogʻi. Soʻzning oʻz va koʻchma maʼno ekanini bilishimiz uchun uni gap tarkibidan olib koʻrsak, yetarli boʻladi. Oltin uzuk (uzuk rostan ham oltin boʻladi), Oltin qoʻl (qoʻl esa oltin boʻlmaydi). Soʻzlarni koʻchma maʼnoda ishlatsak uning uslubiy boʻyoqi oʻzgaradi shuning uchun ham koʻchma maʼnodagi soʻzlar uslubiy boʻyoqdor soʻzlar deyiladi. Masalan gulning chiroylilik belgisi odamlarga koʻchiriladi va koʻchma maʼno hosil qilinadi bunda uslubiy boʻyoq ijobiylikni tashkil qiladi. Soʻzlarning koʻchma maʼnoda qoʻllanilishiga maʼno koʻchish hodisasi deyiladi. Maʼno koʻchish bir necha usullar metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik orqali hosil qilinadi. Shulardan eng koʻp tarqalgan maʼno koʻchish hodisasi metafora.

Metafora predmetning belgi, harakatning oʻxshashligi orqali maʼno koʻchish. Masalan Odamning qulogʻi, qozonning qulogʻi

Predmetning shakl jihatdan oʻxshashligi asosida hosil qilinadi.

Joylashish oʻrni jihatdan oʻxshashligi

Metonimiya bu biron-bir narsani qayta nomlash narsa va hodisa oʻrtasida zamon va makon oʻzaro aloqador boʻladi. Yaʼni bu ikki narsaning birisini aytsa ikkinchini aytmagani taqdirda ham tushuniladi hammaga tushunarli boʻlgan boʻladi. Masalan Navoiyni qoʻlga oldim deganda uning asarlarini tushunamiz. 21 ga kirdim aslida 21 yoshga kirdim deyish kerak edi lekin 21 ga kirdim deganda ham hamma tushunyapti bu bir soʻzni ishlatmasak ham oʻzimiz shu soʻzni tiklab, tushunib olishimiz mumkin.

Sinekdoxa oʻzi birgalikda anglash degan maʼnoni anglatadi. Yaʼni insonning bir aʼzosini aytish orqali butun bir aʼzolari tushunamiz, yoki butun bir aʼzoni aytish orqali bir qismini tushunamiz. Masalan qoʻlimni kesib oldim bunda qoʻlini emas barmoqini kesib olgan boʻladi-butun orqali qism

Tirnoqqa zor-qism orqali butun

Majlisga moʻylovni chaqirib keling-moʻylov deganda qism orqali butun

Vazifadoshlik-bunda shakl, makon-zamon bir-biriga oʻxshamaydi lekin bajaradigan vazifasi bir xil boʻladi. Masalan Stolnoing oyogʻi, insonning oyogʻi bular shakl jihatdan ham umuman oʻxshamaydi lekin bajaradigan vazifasi bir xil muvozanatni saqlash uchun kerak boʻladi.

Bir soʻzning oʻzida ham bir necha xil maʼno koʻchish hodisalarini uchratishimiz mumkin. Quloq soʻzi metafora, sinekdoxa, vazifadoshlikni hosil qiladi. Tandirning qulogʻi (metafora). Eshitgan quloq nima deydi (sinekdoxa). Devorning ham qulogʻi bor (vazifadoshlik).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mengliyev B Hozirgi oʻzbek tili- Toshkent-2018
2. Sayfullayeva R R, Mengliyev B R, Boqiyeva G H, Qurbonova M M, yunusova Z Q, Abuzalova Z Q Hozirgi oʻzbek tili-Toshkent 2010
3. Jamolxonov J Hozirgi oʻzbek adabiy tili-Toshkent-2005
4. Rahmatullayev Sh Hozirgi adabiy oʻzbek tili- Toshkent-2006